



9/2023

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



9/2023

Jumayeva Ch.I.	Ba'zi to'rt o'lchamli Li algebralaring lokal ichki differensiallashlari	106
Зарипов Г.Т.	Технология производства напитков на основе составляющих природного характера	110
Меражова Ш.Б	Эквивалентность обратной задачи поставленной уравнению смешанного типа интегральному уравнению Фредгольма 1-рода	114
Bazarova S.J.	Elementary thermodynamics	120

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Navruzova M.G.	Tibbiy birliklarning folklor asarlaridagi genderologik tavsifi	127
Raxmanov B.A.	Surxondaryo etnodialektal xarakterdagi maqol va matallarning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari	131
Nazarova S.A.	Turkiy tillarda shaxs tafsifining sintaktik ifodasi xususida	136
Akramov I.I.	An aphorism as an entire passage: mechanisms of structural-semantic organization	142
Nabiyeva Sh.I.	Formation and orthological genesis of the English literary language norms	148
Saidova M.U.	Ingliz adabiyotshunoslik lug'atlari xususida mulohazalar	152
Umurova Kh. Kh.	Linguoculturological analysis of axiological concepts of wedding rite in different cultures	158
Жўраева Ю.Ф	Ўзбек хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни ва қўлланиши	162
Vaxidova F.S	Ziyorat turizmi terminlarining struktural qoliplari	167
Kilichev B.E.	Regionim – Buxoro toponimlarining bir guruhi	172
Мейлиева М.О.	Использование современных подходов в преподавании русского языка в условиях билингвизма: актуальные проблемы и рекомендации	176
Каримова Г.Х.	Лингвокультурологические особенности экклезионимов джизакской области	180
Қаххорова Г.Ш.	Юкламаларнинг ёрдамчи сўзлар билан вазифадошлиги	186

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Latipova S.T.	Tarixiy asarlarda Buxoroning hukmdor ayoli tavsifi	197
Meliyev X.N.	Gulbadan Beginning "Humoyunnomá" asari va tarjimalarida keltirilgan ruboiyning adabiy tahlili	203
Тўҳсанов Қ.Р.	Румий "Маснавий маънавий" манзумасининг аслият ва ўзбекча таржимасининг рақамларда берилиши	207
Болтаева Г.ИІ.	O'zbek adabiyotida ilk Muxammas	215
Abdullayeva X.N.	Ingliz hamda o'zbek ertaklarida g'aroyib safar motivi	219
Habibova M.N.	Description of the Orient in Lawrence's "Seven pillars of wisdom"	223
Karamova Sh.L.	Aruz – metaforik tafakkurning keng maydoni sifatida	228
Karimova Sh.K.	Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlarining o'ziga xos jihatlari	232
Muxtorova U.T.	Mumtoz adabiyot namunalarida ilohiy motivlar va rivoyatlarning qo'llanilish tamoyillari	240
Urazaliyeva M.G'.	Maya Anjelu asarlarining adabiy tanqidchilar tomonidan tahlil qilinishi	245
Xolova M.B.	Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishi	251
Муртазаева Ф.Р.	Внутренний мир персонажей в «женской прозе» английских и американских писательниц	258

ZIYORAT TURIZMI TERMINLARINING STRUKTURAL QOLIPLARI

Vaxidova Fotima Saidovna,
Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasи katta o'qituvchisi
f.s.vaxidova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ziyorat turizm terminlarining struktur- semantik modellari, shakllanish tamoyillari va manbalari tahlil qilingan. Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizm terminologiyasining tarkibi so'z yasashning morfologik, sintaktik, va leksik semantik usullari dalilalangan.

Kalit so'zlar: derivatsiya, qolip, morfologik, struktural yasalish.

STRUCTURAL PATTERNS OF PILGRIMAGE TERMS

Abstract. This article analyzes the structural and semantic models, principles of formation and sources of terms of pilgrimage tourism. The composition of pilgrimage tourism terminology in English and Uzbek languages is confirmed by morphological, syntactic and lexico-semantic methods of word formation.

Key words: derivation, model, morphological, structural, formation.

СТРУКТУРАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ТЕРМИНОВ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Аннотация. В данной статье анализируются структурно - семантические модели, принципы формирования и источники терминов паломнического туризма. Состав терминологии паломнического туризма на английском и узбекском языках подтверждается морфологическими, синтаксическими и лексико-семантическими методами словообразования.

Ключевые слова: деривация, модель, морфологический, структурный, формирование.

Kirish. Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi. O'zbek tili terminlari sistemasi struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Bugungi kunda o'zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqeа-hodisa tushunchasi, ma'no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur (shakl) jihatdan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik(sinonimik) qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas.

Terminlar struktur xususiyatlari va derivastion jarayonlar terminlarni tushunish, ziyorat turizm sohasi mutaxassislarining o'zaro bir-birini tushunishida muhim rol o'ynaydi. Bunday xususiyatlar terminning shakily mezonini o'rganishda ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Avvalo, ziyorat turizm sohasi terminlarining so'z turkumli tavsifiga to'xtalamiz. Barcha soha terminshunosligida bo'lgani kabi o'rganilayotgan korpuslarda ot so'z turkumi ustuvordir.

Terminning shakl jihatini tahlil qilib, ko'plab tadqiqotchilar terminlarning tarkibiga ko'ra farqlanadigan ikki asosiy guruhlarini ajratishadi: termin-so'zlar (bir komponentli) va termin-so'z birikmalar (ko'p komponentli).

O'rganilayotgan terminotizmlarda bir komponentli va ko'p komponentli terminlarning tillar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

	O'zbek tili		Ingliz tili	
	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan hisobidan %	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan % hisobidan
Bir komponentli	288	41,1%	301	30,4%
Ikki komponentli	378	54%	635	64,1%
Uch komponentli	33	4,8%	37	3,7%

LINGUISTICS

To‘rt komponentli	1	0,1%	2	0,2%
Olti komponentli	-	-	1	0,1%

Demak, biz tomondan olingen ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi "ziyorat turizmi" terminosistemasi shakllanish jarayonida bo'lib, taraqqiyoti davomida allaqachon shakllanib bo'lgan terminosistemalarga intiladi. Ko‘p komponentli terminlarning ko‘pligi, shuningdek, turizm terminlari ixtisoslashuvi jarayonining jadallahshuvidan, terminosistemaning ierarxik tuzilmasining shakllanishidan, terminlar o‘rtasidagi derivatsion aloqalarning o‘rnatalishidan dalolat bermoqda. O‘zbek va ingliz tillaridagi turistik nomlar ro‘yxatining qiyoslanishi, shuningdek, o'zbek tilida oddiy terminlar yasama terminlardan ko‘ra ko‘pligiini, (mos ravishda 38,5% va 28,1%) ingliz tilida esa mazkur nisbat amalda bir xilligini (35,5% va 34,6%) aniqlashga imkon beradi. Bunday farq shu bilan izohlanadiki, o'zbek bir komponentli terminlarning yetarli darajada katta qismi o‘zlashtirma so‘zlar hisoblanadi (mehrob, qibla, ziyorat, masjid, *apgreyd, buking, otel trevelog, patio, xostel, branch, xab va boshqalar*).

Terminshunoslik bo‘yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar [2, 106] shundan dalolat beradiki, shakllanayotgan terminotizimda ko‘p komponentli terminlarning soni 70% ga yaqinlashadi. Demak, biz tomondan olingen ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi "turizm" terminotizimi shakllanish jarayonida bo'lib, taraqqiyoti davomida allaqachon shakllanib bo'lgan terminotizimlarga intiladi.

Ko‘p komponentli terminlarning ko‘pligi, shuningdek, turizm terminlari ixtisoslashuvi jarayonining jadallahshuvidan, terminotizimning ierarxik tuzilmasining shakllanishidan, terminlar o‘rtasidagi derivastion aloqalarning o‘rnatalishidan dalolat bermoqda. Bunday farq shu bilan izohlanadiki, o'zbek bir komponentli terminlarning yetarli darajada katta qismi o‘zlashtirma so‘zlar hisoblanadi (*apgreyd/upgrade, safari/safari, trevelog/travelog, botel/botel, djakuзи/jakuzi, kabana/cabana, xostel/hostel, branch/brunch, xab/hub*).

Turistik terminologiyada eng ko‘p qo‘llanilgan uslub so‘zlarning birikuvidir. Jumladan, *ot + ot* (*muzey-qo‘riqsona, yaxt-klub, kokteyl-zal, gid-tarjimon, yo‘l-xarita, vagon-restoran, lanch-paket, basket-furshet, reliz-data, konferens-zal, vip-tur*); *internatsional xarakterdagi o‘zgarmas bog‘liq bo‘lak + ot* (*avtoturist, avtoturizm, avtorestoran, avtokarvon, avtouy, aviareys, aviatarif, aerovokzal, agroturizm, geoturizm, ekoturizm, akvapark*).

O‘zbek tilining terminotizimida murakkab so‘zlarning o‘sishi, avvalo, inglizzabon termin elementlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lib, tizimning inglizchaga yo‘nalganligidan dalolat beradi. Turizm terminshunoslige tegishli murakkab so‘zlar orasida inglizcha so‘zlarning kirishi aniq kuzatilib, ular xalqaro xarakterga ega: *rum-servis/room service, lanch-paket/lunch package, fast fud/fast food, split-charter, buking-list/booking list, ruming list/rooming list va boshqalar*.

Biroq yasama bo‘lmagan terminlarning ko‘pligiga qaramasdan, shuni ta’kidlash lozimki, turistik terminlarning affiksal paydo bo‘lishi yetarli darajada mahsuldor hisoblanadi (o‘zbek va ingliz tillarida turizm sohasining bir komponentli terminlarining shakllanishi yo‘llari tavsiflangan jadvalga qarang). Turizm sohasida bu umumiste’moldagi leksikaning shakllanishi kabi ayni o’sha so‘z shakllantiruvchi model asosida amalga oshiriladi. Asosiy terminologik birliklar ot so‘z turkumi hisoblanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi turizm terminshunosligi tizimida otlar barcha nutq qismlarining umumiyligi sonidan tegishli ravishda 97,1% va 96,8% ni tashkil etadi. Turizm sohasi tizimda faoliyat yurituvchi ot so‘z turkumini semantik belgisiga ko‘ra

- 1) jarayon;
- 2) faoliyatni amalga oshiruvchi;
- 3) turistik predmetlar, obyektlar, hodisalarni belgilaydigan 3 ta semantik sinfga bo‘lishadi: jarayonni ifodalovchi ot so‘z turkumi orqali yasalgan turistik terminlar ingliz tilida -ing suffiksli so‘z shakllantiruvchi modellar eng ko‘p qo‘llaniladi: *praying, visiting, camping, hiking, staggering, catering, caravanning, trekking, meeting*.

Mazkur toifadagi ot so‘z turkumini yasashda -tion (reservation, recreation, animation, accommodation), -al (arrival), -ure (departure), -age (pilgrimage, porterage) suffikslari kam ishlatilgan.

O‘zbek tilida jarayonni anglatuvchi turizm terminlarining yasalishi boshqa sohalardagi terminlar yasalishiga o‘xshaydi: bunda ustuvor suffiks -lash, -lashtirish hisoblanadi (*joylashtirish, mo‘ljallash, bronlash, rezervlashtirish, kvotalash*). -lash suffiksi bilan tugaydigan so‘zlar ko‘plab sohalarda qo‘llanilib, ilm-fan va texnika, ishlab chiqarishning turli sohalari tiliga xosdir.

Ziyorat turizm terminshunosligidagi salmoqli qatlamni har ikkala tilda faoliyatni amalga oshiruvchi, boshqacha aytganda, shaxs ismlarini bildiruvchi otlar tashkil qiladi. Shaxslarning inglizcha nomlari orasida ko‘pchilik qismni -er suffiksi yordamida shakllangan otlar tashkil qiladi: *prayer, hosteller, busser, greeter, traveler, tripper, camper, cruiser*.

Ingliz tilida shaxslarni bildirishda mahsuldorlik bo‘yicha ikkinchi va uchinchi o‘rinda -or (*animator,*

LINGUISTICS

visitor, consolidator) va -ist (receptionist, excursionist, motorist) suffiksli modellar turadi.

O‘zbek tili turizm terminshunosligida shaxs nomlarini yasashda eng mahsuldor modellar sifatida -or(er) (registrator, administrator, animator, rekreator, restorator, konsolidator, riteyler, serfer, dayver, xoteler), -chi (sayohatchi, kuzatuvchi, kutib oluvchi) suffiksli modellar xizmat qiladi.

Ot so‘z turkumining uchinchi sinfini turizm sohasidagi predmetlar, obyektlar va turizm sohasi hodisalari tashkil etadi. Ingliz tilida -er suffiksli (*appetizer, diner, sleeper, trailer, liner*) terminologik nomlar faoldir.

-ity (*hospitality, seasonality*), -ery/ory (*carvery, inventory*) qo‘sishimchalari ham birmuncha faollikka ega.

O‘zbek tilida suffiksastiya ot so‘z turkumining mazkur sinfida ingliz tiliga qaraganda kam faol hisoblanadi: -lik *qo‘sishimchali* ko‘p bo‘lmagan terminlar *mavjud* (*mavsumiylik, daromadlilik*) va -ing (*kemping, parking, yaxting*).

Old qo‘sishimchalar (prefiksatsiya) tahlil etilgan tanlamaning mulohaza yuritishga imkon yaratishiga ko‘ra o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham turizm terminlarini tashkil etishning mahsuldor yo‘li hisoblanmaydi: o‘zbek tilida (*nosezon, norezident*), ingliz tilida (*non-season, non-resident, overbooking, incoming, rerouting*) kabilargina uchraydi.

Tadqiq etilayotgan terminologiyada fe’l so‘z turkumlari unchalik ko‘p emas va ulardan termin yaratishda ot so‘z turkumiga qaraganda kam foydalanilgan. Fe’llarning suffiksastiysi ancha kuchsiz: o‘zbek tilida - *lash/lashtirish* (*bronplash, rezervlashtirish, kvatalash*), ingliz tilida - *ate* qo‘sishimchali 4ta fe’l (*accommodate, animate, recreate, consolidate*) aniqlandi. Fe’lllar orasida prefiksatsiya kamroq uchraydi: *reboard, reissue, reroute*.

Ziyorat turizm terminshunoslikda inglizcha so‘z yasash uchun quyidagi modellar xos:

1) ot + ot (*imomkhateeb, bellboy, owner-manager, housekeeping, chambermaid, pageboy, rest-camp, roadhouse, timeshare, birdwatching, hillwalking, kitesurfing, busboy*);

2) fe’l+ predlog-so‘ng qo‘sishimcha (*check-in, check-out, pick-up, kick-back, stopover, blackout*);

3) sifat+ ot (*freedriving, blacklist*).

“Turizm” terminotizimi tarkibidagi termin so‘z birikmalarning eng mahsuldori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Konseptual modellarda komponentlarni belgilash uchun biz ingliz va o‘zbek tillarida umume’tirof etilgan qisqartirishlardan foydalanamiz: ot son turkumi (ot) – N (noun); sifat so‘z turkumi (sifat.) – Adj (adjective); predlog (predl.) – prep, (preposition); bog‘lovchi – conj (conjunction).

O‘zbek “turizm” terminotizimning ko‘p komponentli terminlari struktur modeli quyidagicha tahlil qilindi

Terminologik so‘z birikma	Model	Jami birlik	Jami, %	Namunalar
Ikki komponentli	sifat + ot	310	82,3%	<i>Muqaddas kitob, Muborak safar, katta haj, halol taom, Muqaddas avliyo, to’liq paket, Charter aviareys, turistik qishloq, tematik park, tabarruk qadamjoh, aziz avliyo</i>
	ot + ot	54	13,8%	<i>Nogironlar aravachasi, ziyoratgoh joy, ziyoratchilar kiyimi, Umra qo’llanmasi, qabr toshi, Haj vizasi, Payg’ambар ravzalari, ziyoratchilar bejiki, gid tarjimon, Arafot tog’i, mehmonxona xizmati, qo’lyuki.</i>
	ot+predlog + ot	14	3,9%	<i>Ravzadagi gumbaz, quduqdagi suv, ziyoratga ruxsatnoma, ziyoratga yo’llanma, hajdagi amallar.</i>
Jami		378	100%	
Uch komponentli	ot + sifat+ ot	9	27,2%	<i>Ziyorat lyuks paketi, turizmning yuqori konyukturasi, Mehmonxona standartli xizmati, sayohatning mavsumiy tannarxi.</i>
	ot+ pred.	7	21,2%	<i>Mehmonxona uchun qo‘sishimcha to’lov, ziyorat</i>

LINGUISTICS

	+sifat+ ot			<i>uchun turistik xarajatlar.</i>
	ot +ot + ot	5	15,1%	<i>Jahon sayohlik tashkiloti, ziyyarat turizmi paketi, transport narxi koeffitsienti, ziyyarat manzili xaritasi, qibla (Makka) yo'nalishi ko'rsatkichi.</i>
	ot + pred.+ ot + ot	3	9%	<i>Ellikboshi hamrohligidagi tur, maqbara joyiga tur, vizalar uchun talabnomha buyutrmasi</i>
	sifat+sifat+ot	3	9%	<i>Halol tarkibli taom, tashqi/ichki turistik oqim, muqaddas manzilli ziyyarat.</i>
	Boshqa	6	18,5%	<i>Shahar bo'ylab obzor ekskursiya, "uchinchchi yosh" turizmi, ziyyaratgohning doimiy mijoz; oilaviy ziyyoratchilar tur paketi.</i>
Jami		33	100	
To'rt komponentli	Ot+ot+ot+ot	1	100%	<i>Ziyyarat xizmatidagi transport vositalari.</i>

Ziyyarat turistik terminlarining inglizcha tanlamasida ikki komponentli birliklar ustuvor bo'lib, ulardan eng ko'p ishlatilgani N + N (442 atama, 69,6%) modeli ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur modelning keng qo'llanishi shu bilan izohlanadiki, bunday so'z birikmalar sintaktik munosabatlarni ifodalashning tejamkorlik vositasi hisoblanadi, chunki komponentlar o'rtaisdagi aloqlar so'zlarning o'mini oddiy o'zgartirish orqali mazkur aloqaning shakliy ko'rsatkichlari ishtirokisiz amalga oshadi.

Struktura	Model	Jami, birlik	Jami, %	Misollar
Ikki komponentli	N + N	442	69,6%	<i>Prayer book, Faith healing, Church porch, Sky temple, icon lamp, icon case, Blessing benediction, church records, communion cup, communion table, Ember days, Hall porter, hospitality praying room, menu card, shoulder season, tourism resources</i>
	Adj +N	181	28,5%	<i>Silk road, sacrificial altar, ritual bath, scared place, Holy See, Cultural heritage, Catholic church, ecumenical council, ecclesiastical law, religion ceremony, connecting rooms, halal hotel, good deed, Holy Qur'an, happy hour, ethnic restaurant, domestic traveler</i>
	N + prp / conj + N	12	1,9%	<i>Mother of God, Object of worship, act of worship, Kingdom of heaven, Bed and breakfast, meet and greet, heads in beds, length of stay, Prince of Peace, demand for tourism, date of departure</i>
Jami		635	100%	
Uch komponentli	Adj + N + N	13	35,1%	<i>Supplementary pilgrimage accommodation, daily pilgrimage flow, same day prayer, large pray room, electronic praying beads,</i>
	N + N + N	11	29,7%	<i>Pilgrimage journey route, worship places itenary, room status board, church candle stand (box), passenger facility charge, country house hotel</i>
	N + conj + N + N	4	10,8%	<i>Mosques and security regulations, food and beverage facilities, hub and spoke tour.</i>
	N +Adj +N	3	8,1%	<i>pilgrimage generating areas, group inclusive tour, horse riding tour</i>
	Boshqalar	6	16,2%	<i>Domestic independent tour, visiting friends and relatives, third and fourth freedom, inbound tourism department, host party logo.</i>
Jami		37	100%	
To'rt	N + N + N	2	100%	<i>Pilgrims' conference room facility, pilgrimage pray</i>

komponentli	+ N			room mat.
-------------	-----	--	--	-----------

Xulosa. Zamonaviy ingliz tilida ikki komponentli substantiv so‘z birikmalari vazifasi ko‘p hollarda otning grammatik imkoniyatlari bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari “predmet” ma’nosidan tashqari, ot turli nominallashgan harakatlar, belgilar, sifatlarni ifodalashi mumkin. Otlarning so‘z birikmalari tarkibiga kirishi ularning “uzunligi” va shuningdek, “chuqurligi”ni ta’minlaydi: otlar guruhi mazmunan juda sig‘imli sintaktik tuzilma hisoblanadi, chunki aniqlovchilar o‘z navbatida, sintaktik guruhlarning yadrolari bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tili korpusi tahlili shuni ko‘rsatdiki, terminshunoslik so‘z birikmalarining sintaktik yasalishi hozirgi kunda termin hosil qilishning eng mahsuldor yo‘li hisoblanadi.

Yuqoridaqilarni xulosalagan holda, shuni qayd eta olamizki, ot so‘z turkumi barcha so‘z birikmalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ot so‘z turkumining ko‘p qo‘llanilishi uning semantik sig‘imidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Вахидова, Ф. (2022). *Ziyorat turistik terminlar ozlashuvining intralingvistik omillari va tarixiy-etimologik manbalari*. центр научных публикаций (buxdu.uz), 18(18).
2. Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: МГУ, 1993. –С.106;
3. Saidovna, V. F. (2023). *The Formation of Tourism and its Development in Central Asia. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 398–402. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/357>
4. Vakhidova Fotima Saidovna. (2022). *Pilgrimage Tour in Tourism. Miasto Przyszłości*, 28, 342–345. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/651>
5. Saidovna, V. F. (2022). *The Usage of Pilgrimage Tourism Terms in the English Language. International journal of inclusive and sustainable education*, 1(4), 66-70.